

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATINING CHAKANA TOVAR AYLANMASI

(2018 yil)

Viloyat bo`yicha joriy yilnda chakana savdo tovar aylanmasi 5269,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 10,7% ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1092,3 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 75,9%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 3681,6 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 0,9%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 495,3 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7% ga oshgan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana tovar aylanmasi hajmi hamda o'sish sur'atlari

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	5269,2	110,7	1092,3	175,9

shaharlar:

Urganch	1876,3	125,4	904,4	182,6
Xiva	214,0	101,8	20,2	2,8 m.


tumanlar:

Bog'ot	250,1	107,2	30,1	7,4 m.
Gurlan	383,0	98,7	7,2	109,0
Qo'shko'pir	236,4	107,5	8,8	52,7
Urganch	494,0	109,0	34,9	113,8
Xazorasp	597,2	102,1	22,8	69,8
Xonqa	354,8	115,0	35,0	2,6 m.
Xiva	143,0	104,8	1,4	79,7.

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


Shovot	291,4	103,6	21,2	2,6 m.
Yangiariq	287,8	100,4	4,5	122,2
Yangibozor	141,2	87,6	1,6	2,9 m.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)



2018 yilda viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri, Xonqa, Urganch va Qo'shko'pir tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,9% ga o'sdi va 1092,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 20,7% ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 4176,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilga nisbatan 10,0% ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,3% ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2017 YIL




2018 YIL



█ Yirik korxonalar
█ Kichik tadbirdorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Xiva (99,0%), Yangibozor (98,9%), Yangiariq (98,4%) va Gurlan (98,1%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 20,7% ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (48,2%), Bog'ot (12,0%) va Xonqa (9,2%) tumanlarida kuzatilgan.

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

2018 yil chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2866,3 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,8% ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2017 yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Urganch shahri (13222,9 ming so`m), Gurlan (2628,5 ming so`m) va Urganch (2542,5 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Xiva (1002,1 ming so`m), Qo'shko'pir (1400,7 ming so`m) va Bog'ot (1552,7 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2866,3	107,8

shaharlar:

Urganch	13222,9	123,4
Xiva	2357,1	99,3

tumanlar:

Bog'ot	1552,7	104,2
Gurlan	2628,5	96,4

Qo'shko'pir	1400,7	104,6
-------------	--------	-------

Urganch	2542,5	105,6
---------	--------	-------

Xazorasp	2448,5	99,4
----------	--------	------

Xonqa	1939,8	112,1
-------	--------	-------

Xiva	1002,1	101,9
Shovot	1748,9	100,7
Yangiariq	2526,5	97,8
Yangibozor	1647,2	85,4

Jumladan, 2018 yil mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4% ni tashkil etib, 74,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilga nisbatan 6,9% kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 93,9% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil)

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1595,5 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilga nisbatan 47,9% ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlari hajmi 2018 yil yakunlariga ko`ra 913,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 40,5% ga oshgan. Ushbu sektorining umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,2% ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Bog'ot, Yangiariq va Yangibozor tumanlarida (100,0%) yuqori bo'lган.

Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur`atlari Yangibozor tumani (5,1 m.) va Yangiariq tumani (193,6%) da qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:62-224-65-09